



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ONOMASTIK KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRIKMALARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Mirzakamolova Madina

Andijon davlat chet tillari instituti magistranti

mirzakamolovam@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birikmalarning kontekstual ma'no xususiyatlarini qiyosiy tadqiq qilish va ularning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar. *Frazeologik birikmalar, frazeologizm, turg'un birikmalar, intellektual xususiyat, so'zlar ekvivalentlari.*

Аннотация. *Данная статья посвящена сопоставительному исследованию контекстуальной семантики фразеологических сочетаний и их лингвистической интерпретации.*

Ключевые слова. *Фразеологические комбинации, фразеологизм, постоянные сочетания, интеллектуальные особенности, эквиваленты слова.*

Annotation. *The article is devoted to the comparative investigations of contextual semantics of phraseological combinations and their linguistic interpretation.*

Key words. *Phraseological combinations, phraseologism, fixed combinations, intellectual properties, equivalents of words.*

Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa sifatida lug'at boyligiga va Grammatik qurilishga mansub birliklardan foydalanish qoidalaridan iborat. Lug'at boyligiga mansub birlik lug'aviy birlik, grammatik qurilishga mansub birlik esa grammatik birlik deyiladi. Lug'at boyligida ikki qatlam mavjud: so'zlar qatlami shular asosida tarkib topgan iboralar, frazeologik xarakterdagi birikmalar, frazemalar qatlami.



Frazeologik xarakterdagi turg'un birikmalar til egasi bo'lgan xalqning ma'naviy qadriyatlari, turmush tarzi va madaniyati, urf – odati, kabi yashash sharoiti, intilishi voqelikka munosabati bilan uzviy bog'liqdir. Frazeologik turg'un birikmalar obrazlilik, ekspressivlikni vujudga keltiruvchi muhim vositalar bo'lib, ular badiiy, siyosiy va publitsistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Ular ixcham, ma'no jihatidan salmoqdor, fikrni asosli, obrazli va ta'sirchan ifodalashga yordam beradi. Har bir so'z ma'lum ma'no anglatadi. So'zlarning ma'no turlari odatda, so'zlar turkumlariga bog'lab belgilanadi. Tilning frazeologik sostavi esa keng ma'noga va stilistik bo'yoqlarga ega, ushbu mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, frazeologik birikmalarning kontekstual ma'no xususiyatlari, ularning strukturasidagi elementlarning o'zaro munosabatlari va tarjima masalalari o'z yechimini kutayotgan mavzulardan ekanligi uni yanada chuqurroq ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Frazeologizmlar tildagi so'zlarning ekvivalentlari hisoblansada, so'zlarning strukturalari va ma'nolarida juda ko'p farqlanish alomatlari mavjud bo'lib, ularning morfologik va sintaktik funksiyalari ham turlichadir. Tarkibiga ko'ra so'zlar yaxlit birikma shaklida hosil bo'ladi, frazeologizmlarning har ikki semantik turi (frazeologik butunlik va frazeologik chatishma) ham o'z komponentlarining ma'no jihatidan ulanib ketishi, leksik sostavning ko'pgina o'rinlarda morfologik va sintaktik jihatidan birikishining turg'unligi bilan izohlanadi. So'z birikmalari va gaplarning komponentlari esa semantik jihatdan bog'lanishda ancha erkinlikka ega. Shu tufayli ham frazeologizmlar turg'un birikmalar deb, so'z birikmalari va gaplar esa tarkibiga ko'ra erkin so'z birikmalari deb yuritiladi.

Frazeologizmlar semantik xususiyatlarini o'rganish orqali ularda frazeologik polisememiya, frazeologik sinonimiya va paronomiya hodisalari borligi aniqlangan. Frazeologizmlarning paradigmatic va sintagmatic xususiyatlari ularda Grammatik (morfologik, sintaktik) va leksik-semantik vositalar keng qo'llanilishini ko'rsatadi. Frazeologizmlar variantlanishi ularning komponentlari almashtirishi (substitutsiya qilishi), qo'shilishi, tushirib qoldirilishi va transformatsiya qilinishiga bog'liq.



Grammatik (morfologik) strukturasiga ko'ra fe'lli, o'tli ravishli undovli va hokazo frazeologizmlar farqlanadi.

Odam nomlari bilan bog'liq ya'ni, onomastik komponentli frazeologik birliklar guruhini alohida ta'kidlash zarur. Bu guruh ichida quyidagicha uchta bo'limni ajratib ko'rsatish mumkin.

- 1) familiyalar bilan bog'liq bo'lgan onomastik frazeologik birliklar,
- 2) ismlar bilan bog'liq bo'lgan onomastik komponentli frazeologik birliklar,
- 3) ism va familiyalar bilan bog'liq bo'lgan onomastik komponentli frazeologik birliklar.

Onomastik komponentli frazeologik birliklarning asosiy qismi ma'nojiatidan insonga qaratilgan bo'lib, ular kishining biror jismoniy, ruhiy, ahloqiy, intellektual xususiyatini, hatti – harakatini baholaydi. Ingliz tilidagi onomastik komponentli frazeologik turg'un birikmalar ingliz xalqining ma'naviy, milliy madaniyati, urf – odati, kasbi, yashash sharoiti, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog'liqdir. Ular obrazlilik, ekspressivlikni vujudga keltiruvchi muhim vositalar bo'lib, badiiy – publitsistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Ular ixcham, ma'no jihatidan salmoqdor, fikrni asosli, obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalashga yordam beradi. Kelib chiqishiga ko'ra onomastik komponentli frazeologik birikmalarni ikki asosiy guruhga ajratish mumkin.

- 1) sof ingliz tiliga xos onomastik komponentli frazeologik birliklar,
- 2) boshqa tillardan kirib kelgan OKFTBlar

O'z navbatida sof ingliz tiliga xos OKFTBlar quyidagicha guruhlanadi.

Bibleizmlar,

Shekspirizmlar,

Antik mifologiya bilan bog'liq onomastik komponentli frazeologik birliklar, Ertak qaxramonlari nomlari bilan bog'liq bo'lgan onomastik komponentli frazeologik birliklar,



Tarixiy shaxslar nomlari bilan bog'liq bo'lgan onomastik komponentli frazeologik birliklar,

Adabiy manbalardan olingan (asar personajlari nomi bilan bog'liq onomastik komponentli frazeologik birliklar)

Ingliz xalqining urf – odatlari bilan bog'liq bo'lgan birikmalar.

Chet tillardan kirib kelgan onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklarni quyidagicha guruhlash mumkin.

- 1) Mifologiya bilan bog'liq bo'lgan onomastik komponentli frazeologik birliklar,
- 2) Fransuz tilidan kirib kelgan onomastik komponentli frazeologik birliklar,
- 3) Nemis tilidan kirib kelgan onomastik komponentli frazeologik birikmalar.

Onomastik komponentli frazeologik birikmalar matnni jonlantirish, jozibador va obrazli qilish, fikrni tayyor matn qoliplari, formulalari bilan ifodalash, uni mazmundor qilish maqsadida ishlatiladi. Ingliz tilidagi onomastik komponentli frazeologik birikmalar ingliz xalqining milliy o'ziga xosligini ifodalaydi. Ularni tarjimada aks ettirishning murakkabligi shundaki, ularning yaqqol ajralib turuvchi milliy harakterga ega ekanligidadir. Bundan tashqari onomastik komponentli frazeologik birliklarning leksik, semantik – stilistik va kompozitsion nuqtai nazardan murakkab tabiati tarjimon uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi. Tarjimada originaldagi frazeologik sostavni saqlab qolish asarning obrazli – emotsional xususiyatlarini qayta yaratishning muhim shartidir.

Inglizcha onomastik komponentli frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilishda milliy o'ziga xoslikning barcha elementlarini saqlab bo'lmaydi, lekin ular orasidan shundaylarini ushlab qolish kerakki, natijada o'quvchida o'sha xalq haqida milliy muhit tasavvuri hosil bo'lsin.

Tarjimada badiiy asar ohangini berish barcha adabiy janrlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agar alohida olingan maqol yoki mataldan tortib to sonet,



g'azal, poema, hikoya, romangacha hamohanglik ta'minlanmagan bo'lsa, u tarjima soxta jaranglaydi. Ohang esa, o'z navbatida, badiiy asarning boshqa komponentlari, ya'ni lug'aviy birlik, sintaksis, inversiya, radif, qofiya, vazn va boshqa vositalar bilan bog'langan holda tarjimaga yo tabiiylik, yoki aksincha, soxtalik bag'ishlaydi, ya'ni, sun'iy kontekst, yasama badiiy muhit paydo bo'lishiga olib keladi.

Uslub har bir muallifning o'ziga xos xususiyati bo'lib, har bir muallifning o'z uslubi – ijodiga xos g'oyaviy yo'nalishi, matnda qo'llaydigan badiiy–tasviriy vositalari, leksik-frazeologik elementlari va badiiy shaklga aloqador o'ziga xos komponentlar mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Har bir muallifning o'z "tili", ya'ni uslubini qayta yaratish badiiy tarjimaning muhim shartlaridan biri bo'lib, tarjimondan kata badiiy mahorat talab qiladi.

Uslubiy rang-baranglik, shakl va ma'nolar jilvakorligi har bir milliy adabiyotning kata boyligidir. Agar turli-tuman uslublar, bo'yoqlar bo'lmaganida edi, yagona uslubiy g'alizlik, yangranglik, siyqalik yuzaga kelgan bo'lar edi. Bunday holat esa fikriy to'mtoqlikka, badiiy qashshoqlikka olib kelgan bo'lar edi. Shu sababli har bir milliy adabiyot qadr-qimmati adabiy mahsulotining ko'pligi bilan emas, balki uning o'ziga xos yorqin uslub namunalarini yaratgan va yaratayotgan ijod axlining bunyodkorlik quvvati bilan o'lchanadi. Demak, har bir ijodkorning o'ziga xos uslubini tayin etishda uning ijodini boshqa tarixiy davrda yashagan shoir va yozuvchilarning uslubi bilan qiyoslash shart emas, balki bunda zamondosh yozuvchilar ijodini chog'ishtirsa ham bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кунин А.В. Английская фразеология. Москва, Высшая школа, 1970.
2. Mamatov A.E. Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolar. T. 1998.
3. Raxmatullayev SH.U. "O'bek tilining izoxli frazeologik lug'ati". Toshkent, O'qituvchi, 1978. Cowie, A.P. 1998. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. Oxford: Oxford University Press.